


## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 13 004,4 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilib, oʻsish surʻati 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,9 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 852,6 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalar hajmining 6,6 foiz va oʻtgan yildagi koʻrsatkichga nisbatan 89,3 foiz oʻzlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 12 151,8 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalar hajmining 93,4 foiz va oʻtgan yildagi koʻrsatkichga nisbatan 107,3 foiz oʻzlashtirildi.




### Moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar (2022- yil yanvar- sentabr)


	mlrd. soʻm	oʻsish surʻati, % da	hajmga nisbatan, % da
<b>Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>13 004,4</b>	<b>105,9</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>852,6</b>	<b>89,3</b>	<b>6,6</b>
Budjet mablagʻidan	531,1	79,6	4,1
Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi	-	-	-
Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida boʻlgan chet el kreditlari	289,6	199,2	2,2

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	31,9	46,8	0,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>12 151,8</b>	<b>107,3</b>	<b>93,4</b>
Korxona o'z mablag'lari	4 983,9	2,4 m.	38,3
aholi mablag'lari	1 181,4	110,0	9,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	5 897,3	77,9	45,3
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	89,2	15,7	0,7


**Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2022- yil yanvar- sentabr)



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2022- yil yanvar- sentabr)



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkich korxona o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,6 martaga oshdi.




### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha	13 004,4	105,9	6 187,0	80,2
shaharlar:				
➤ Navoiy	3 777,5	135,5	1 355,4	152,7
➤ Zarafshon	1 139,7	86,5	421,4	36,0
➤ G'ozg'on	101,4	150,7	40,8	161,4
➤ Karmana	1 924,1	104,9	397,9	36,4
➤ Konimex	255,9	20,3	5,8	0,6
➤ Qiziltepa	469,3	122,4	150,6	2,4 m.
➤ Navbahor	338,2	102,8	28,9	50,9
➤ Nurota	1 127,8	2,7 m.	811,5	10,3 m.
➤ Tomdi	3 005,3	97,5	2 896,9	96,4
➤ Uchquduq	198,6	156,9	52,4	3,1 m.
➤ Xatirchi	666,6	97,5	25,4	9,2

### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari, % da



### Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da







### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>13 004,4</b>	<b>1 133,4</b>	<b>11 871,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	8,7	91,3
mashina, uskunarlar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	6 978,3	311,2	6 667,1
qurilish-montaj ishlari	5 072,4	780,9	4 291,5
boshqa harajatlar	953,7	41,3	912,4

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm




### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da



Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 53,7 foiz, qurilish-montaj ishlari- 39,0 foiz hamda boshqa harajatlar- 7,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 667,3 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,1 foiz), tog‘ - kon sanoatida 160,3 mlrd. so‘m (1,2 foiz), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 9 321,5 mlrd. so‘m (71,7 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 320,4 mlrd. so‘m (2,5 foiz), qurilish sohasida 27,6 mlrd. so‘m (0,2 foiz), ulgurji va chakana savdo sohasida 106,9 mlrd. so‘m (0,8 foiz), tashish va saqlash 722,5 mlrd. so‘m (5,6 foiz) hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 1 677,9 mlrd. so‘m (12,9 foiz) ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi**  
(umumiy hajmga nisbatan % da)



2022- yil yanvar- sentabr oylarida umumiy maydoni 554,3 ming kv.m. (2021- yilning mos davriga nisbatan 105,9 %) bo'lgan 1876 xonadonga ega bo'lgan turar - joylar, ulardan 412,0 ming kv.m. (110,8 %) bo'lgan 1398 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.

**Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2022- yil yanvar- sentabr oylari)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami 4 362,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi.









## Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2022- yil yanvar- sentabr oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 953,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 96,7 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.




## Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-iyun
- 2022- yil yanvar-iyun

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,1 foizi to'g'ri kelib, 2021-yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,9 foiz punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,9 foizni tashkil etgan holda 2 272,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 291,7 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 33,1 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 070,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 130,0 foizni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



### Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2022- yil yanvar-sentabr oylari)

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk*		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>4 362,3</b>	<b>4 070,5</b>	<b>100,0</b>	<b>291,7</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	1 042,6	913,0	22,4	129,6	44,4
Zarafshon sh.	742,5	621,6	15,3	120,9	41,4
G'azg'on sh.	9,2	9,2	0,2	-	-
Karmana t.	499,3	494,1	12,1	5,2	1,8
Konimex t.	45,9	43,8	1,1	2,1	0,7
Qiziltepa t.	778,5	773,3	19,0	5,2	1,8
Navbahor t.	365,2	362,0	8,9	3,2	1,1
Nurota t.	350,4	347,8	8,6	2,6	0,9
Tomdi t.	79,1	77,3	1,9	1,8	0,6
Uchquduq t.	75,6	74,2	1,8	1,4	0,5
Xatirchi t.	374,0	354,2	8,7	19,8	6,8

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2021- yil, yanvar-sentabr

9,0



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

22,5



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

68,5



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2022- yil, yanvar-sentabr

4,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

18,9



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

76,4



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 20,3 foiz tashkil etib, 2021-yil yanvar- sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 18,0 foiz punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,3 foiz punktga ko'payib, 53,2 foizni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,0 foiz punktga ko'payib, 26,5 foizni tashkil etdi.



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,9 foizni tashkil etdi va 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 7,6 foiz punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,1 foiz (7,6 foiz punktga kamaydi).



#### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,8 foiz punktga kamaydi va 22,2 foizni tashkil etdi. Qolgan 77,8 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,8 foiz punktga ko‘paydi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)



Eng kam hajm (mlrd. so'm)

